



INVESTITSIYA – FAQAT IQTISODIY RESURS EMAS, BALKI DAVR BILAN HAMNAFAS TARAQQIYOT DEMAK

Poytaxtimizda “Investitsiyaviy barqarorlik: yangi marralar va yangi sheriklik” mavzuidagi
V Toshkent xalqaro investitsiya forumi o'z ishini boshladi.



O'tgan juda qisqa davrda mintaqadagi eng yirik sarmoyaviy platforma darajasiga ko'tarilgan mazkur forum Yangi O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatini keng namoyon etish, xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli loyihalarni

shakllantirish va ilgari surishda muhim xalqaro maydonga aylandi. Buni ishtirokchi davlatlar jug'rofiyasi va qatnashuvchilar soni muttasil ortib borayotgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Agar 2022-yilda ilk bor o'tkazilgan forumga dunyoning 56 mamlakatidan 1 mingdan ziyod xorijiy mehmonlar tashrif buyurgan bo'lsa, bu gal jahonning 100 dan ortiq mamlakatlaridan 10 mingdan ziyod delegat va ishtirokchilar,

jumladan, 4 mingga yaqin chet ellik mehmonlar qatnashmoqda. Ular orasida xorijiy davlatlar hukumatlari rahbarlari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, investitsiya jamg'armalari va ishbilarmon doiralar vakillari

borligi Toshkent xalqaro investitsiya forumining nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

(Davomi 2-betda).



HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Birlashgan Arab Amirliklari energetika

va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazru'iy boshchiligidagi delegatsiya, Xitoy Xalq Respublikasi Milliy energetika boshqarmasi rahbari Van Xunchji boshchiligidagi ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari



delegatsiyasi, Buyuk Britaniyaning investitsiyalar bo'yicha davlat vaziri, lord Djeysen Stokvud boshchiligidagi delegatsiya va O'zbekiston – Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi, “ACWA” kompaniyasi

boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.

(Davomi 3-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BESHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblari!
Qadrlı do'stlar!

Bugun beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida qatnashayotgan davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, jamg'armalar vakillari va yetakchi ishbilarmonlarni ko'rib turganimdan benihoya xursandman.

Sizlarning ishtirokingiz xalqaro miqyosda Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga bo'lgan ishonch tobora ortib borayotganining yana bir ifodasidir. Forum doirasida birgalikdagi

harakatlarimiz katta marralarga erishish uchun mustahkam poydevor bo'lmoqda. Xususan, so'nggi yillarda yurtimizga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingan bo'lsa, shundan 123 milliard dollari oxirgi besh yilga to'g'ri kelmoqda.

Biz O'zbekiston bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan, teng huquqli va o'zaro foydali sheriklikka tayyor investorlar uchun doimo ochiqmiz.

Joriy yilgi forumda dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 4 mingga yaqin xorijiy mehmonlar qatnashayotgani ham anjumanimiz nufuzi yuksalib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Fursatdan foydalanib, tadbirimizda

ishtirok etayotgan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay Janobi Oliylariga, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin Janobi Oliylariga, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin Janobi Oliylariga, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov Janobi Oliylariga, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov Janobi Oliylariga, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev Janobi Oliylariga, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda Janobi Oliylariga alohida minnatdorlik izhor etaman.

(Davomi 2-betda).



O'ZBEKISTON VA GERMANIYA: KO'P QIRRALI SHERIKLIKNING MUTLAQO YANGI MODEL YARATILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti
Frank-Valter Shtaynmayer 17-iyun kuni rafiqasi hamrohligida
rasmiiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi jadal o'zgarib boryapti. Davlatlarning o'zaro bog'liqligi esa tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasi o'zining ochiqligi, izchilligi va pragmatik xususiyati bilan katta natijalarga erishmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz nafaqat yaqin qo'shnilar, balki dunyoning yetakchi taraqqiyot markazlari bilan ham o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatmoqda.

Mana shunday ishonchli, vaqt sinovidan o'tgan va yuqori texnologik sheriklardan biri Germaniya Federativ Respublikasidir. Keyingi yillarda Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri sanalgan bu mamlakat bilan aloqalarimiz butunlay yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi hamkorlik o'zining rivojlanish tarixiga ega. Bu davlat mamlakatimiz mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan va diplomatik aloqalarni yo'lga

qo'ygan. O'tgan davr mobaynida siyosiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarini qamrab oluvchi mustahkam institutsional poydevor shakllantirildi.

Ayniqsa, keyingi yillarda oliy darajadagi muntazam va izchil muloqotlar ikki tomonlama munosabatlarga butunlay yangi sur'at bag'ishladi.

O'zbekiston va Germaniya iqtisodiyotlari bir-birini to'ldiruvchi, ya'ni sinergetik xususiyatga ega.

(Davomi 3-betda).



OʻZBEKISTON VA GERMANIYA: KOʻP QIRRALI SHERIKLIKNING MUTLAQO YANGI MODEL YARATILMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mamlakatimiz oʻz eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulotlarni Yevropa bozorlariga olib chiqish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga intilayotgan bir paytda, Germaniya oʻzining ilgʻor texnologiyalari, innovatsion ishlamlari va yuqori sifatli uskunalari bilan eng maqbul sherik hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimizda Germaniya sarmoyasi va kapitali ishtirokida koʻplab zamonaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Germaniya kompaniyalari oʻzbek bozoriga nafaqat mablagʻ, balki yangicha korporativ boshqaruv madaniyati va yuqori texnologiyalarni olib kirmoqda. Bu esa ichki bozorda raqobatdosh mahsulotlar turini koʻpaytirish va yuqori daromadli ish oʻrinlarini yaratish imkonini beryapti.

Munosabatlar faqatgina raqamlar, zavodlar yoki savdo aylanmasi bilan cheklanib qolmaydi. Bu hamkorlikning markazida, birinchi navbatda, inson omili va xalqlarimiz oʻrtasidagi madaniy-gumanitar rishtalar turadi. Taʼlim va fan sohasi ikki tomonlama aloqalarning eng faol va jonli yoʻnalishiga aylangan.

Oliy martabali mehmon dastlab “Yangi Oʻzbekiston” bogʻidagi Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qoʻyib, xalqimizning ozod va farovon hayot yoʻlidagi egzu intilishlarini oʻzida mujassam etgan ushbu muazzam majmuaga yuksak ehtirom koʻrsatdi.

Shundan soʻng Koʻksaroy qarorgohida Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerni rasmiy kutib olish marosimi boʻldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Oʻzbekiston va Germaniya davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar

faxriy qorovul safi oldidan oʻtib, rasmiy delegatsiyalar aʼzolarini bir-birlariga tanishtirdilar.

Marosim yakunida birgalikda suratga tushildi, soʻng oliy darajadagi muzokaralar boshlandi.

Koʻksaroy qarorgohida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari boʻlib oʻtdi.

Uchrashuvda Oʻzbekiston – Germaniya hamkorligini yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalar va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirishning asosiy masalalari koʻrib chiqildi.

Oʻzbekiston Prezidenti Germaniya Prezidentining oʻz mamlakati va Yevropa Ittifoqining Oʻzbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini izchil rivojlantirishga hamda oʻzaro manfaatli mintaqalararo hamkorlikni ilgari surishga qoʻshgan shaxsiy hissasini alohida eʼtirof etdi.

Ikki tomonlama muloqot jadal tus olib, mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalar yuksak darajaga koʻtarilgan mamnuniyat bilan qayd etildi. Savdo-investitsiya sohasidagi hamkorlikda barqaror ijobiy surʼat kuzatilmoqda. Oʻtgan yil yakunlariga koʻra, oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi 1,4 milliard dollardan ortib, joriy yilning oʻtgan davrida yana 5 foizga koʻpaydi. Germaniyaning Oʻzbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi 2025-yilda 2 milliard dollarga yetdi.

May oyida Toshkentda boʻlib oʻtgan Germaniya iqtisodiyoti kunlari hamda Germaniya – Oʻzbekiston ishbiarmonlar kengashi oʻninchi yigʻilishining ahamiyatiga alohida toʻxtalib oʻtiladi. Tadbirlar yakunida 1 milliard dollarlik yangi investitsiya va savdo kelishuvlari toʻplami imzolandi.

Madaniy-gumanitar aloqalar izchil mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda Oʻzbekistonda 400 mingdan ziyod yoshlar nemis tilini oʻrganmoqda, 2

mingdan ortiq talabalar Germaniyaning yetakchi universitetlarida tahsil olmoqda. Oʻtgan yili ilk bor ikki mamlakat universitetlarining forumi boʻlib oʻtdi.

Oʻtgan hafta nemis universitetlari konsorsiumi bilan Samarqandda Oʻzbekiston – Germaniya amaliy fanlar universitetini tashkil etish toʻgʻrisidagi bitim imzolangan taʼlim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim qadam boʻldi.

Davlat rahbarlari sanoat, energetika va “yashil” iqtisodiyot, transport va logistika, togʻ-kon, toʻqimachilik, farmatsevtika, qishloq xoʻjaligi, taʼlim va sogʻliqni saqlash yoʻnalishlarida hamkorlikni yanada kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini qayd etdilar.

Yetakchilar avtomobilsozlik, maishiy kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, logistika va malakali kadrlar tayyorlash sohalarida yangi qoʻshma loyiha va dasturlar ishga tushirilayotganini olqishladilar. Toshkentda ikkinchi Universitetlar forumi hamda uchinchi Oʻzbekiston – Germaniya tibbiyoti forumining oʻtkazilishi qoʻllab-quvvatlandi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashib, koʻp tomonlama maydonlarda, shu jumladan, “Markaziy Osiyo – Germaniya” formati doirasidagi hamkorlik istiqbollarini muhokama qildilar.

Germaniya Federal Prezidentining ushbu tashrifli ikki tomonlama munosabatlari rivojida yangi bosqichni boshlab berishi hamda ikki tomonlama munosabatlarning barcha jabhalarida oʻzaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer oʻtkazilgan muzokaralar yakunlari boʻyicha Qoʻshma bayonot qabul qilib, koʻp qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilishlarini

tasdiqladilar.

Shuningdek, davlat rahbarlari Oʻzbekistonda qoʻshma loyihalarni amalga oshirayotgan va yangilarini boshlashni rejalashtirayotgan Germaniyaning yetakchi kompaniyalari vakillarini samimiy qutladilar.

Ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi ham boʻlib oʻtdi. Oʻzbekistonda shaharlarni barqaror rivojlantirish boʻyicha loyihalarni bajarish uchun grant mablagʻlari ajratish va imtiyozli moliyalashtirishni nazarda tutuvchi moliyaviy hamkorlik sohasidagi kelishuvlar imzolandi.

Ikki mamlakat yetakchilari huzurida bir qator qoʻshma investitsiya va taʼlim loyihalariga start berildi. Toshkent shahrida “Volkswagen” avtomobillarini yirik uzelli yigʻishni tashkil etish, Andijon viloyatida logistika markazini barpo etish, suyuq maishiy yuvish vositalarini ishlab chiqarish, temir yoʻl sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash hamda zamonaviy imtihn markazlarini ochish kabi loyihalar shular jumlasidan.

Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish hamda Oʻzbekiston va Germaniya oʻrtasidagi sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Oliy darajadagi Oʻzbekiston – Germaniya muzokaralari yakunida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Frank-Valter Shtaynmayer daraxt ekish marosimida ishtirok etdilar.

Koʻksaroy qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyobonida ekilgan daraxt Oʻzbekiston va Germaniya xalqlari oʻrtasida mustahkamlanib borayotgan doʻstlik, ishonch va oʻzaro anglashuv rishtalarining ramziga aylanib, ikki tomonlama munosabatlari tarixida yangi bosqich boshlanganining timsohi boʻladi.

Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning Oʻzbekistonga rasmiy tashrif davom etmoqda.

Ziyouddulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
OʻZA muxbirlari.

ALBANIYA PREZIDENTINING MAMLAKATIMIZGA TASHRIFI YAKUNLANDI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida 16-17-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda boʻldi.

Tashrifning birinchi kuni Toshkent shahrida Oʻzbekiston va Albaniya Prezidentlari rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara oʻtkazdilar. Ikki davlat oʻrtasida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari koʻrib chiqildi.

Oliy martabali mehmon rafiqasi hamrohligida shu kuni poytaxtimizdagi “Yangi Oʻzbekiston” bogʻiga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qoʻydi.

Albaniya yetakchisi tashrif doirasida Samarqandda ham boʻlib, Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. Amir Temur maqbarasi, Registon majmuasi, Mirzo Ulugʻbek muzey-rasadxonasi, Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasiga tashrif buyurdi.

Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay 17-iyun kuni poytaxtimizda oʻtkazilayotgan V Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etib, yalpi majlisda nutq soʻzladi.

– Bunday nufuzli forumda ishtirok etish men uchun katta sharaf. Taklif va samimiy mehmondoʻstlik uchun Oʻzbekiston hukumatiga minnatdorlik bildiraman, – dedi Albaniya Prezidenti Bayram Begay. – Iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga koʻtarilayotgan bugungi davrda Toshkent xalqaro investitsiya forumi kabi maydonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatlar oʻrtasidagi munosabatlari nafaqat rasmiy muzokaralar, balki tadbirkorlar, sayyohlar, olimlar va xalqlar oʻrtasidagi aloqalar orqali ham mustahkamlanadi.

Oʻzbekistonga birinchi tashrifim boʻlsa-da, mamlakatlarimiz oʻrtasidagi yaqinlikni chuqur his qildim. Albaniya Oʻzbekiston bilan uzoq muddatli va oʻzaro manfaatli iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishdan manfaatdor. Biz bu hamkorlikni mazmunli va samarali qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyormiz.

Albaniya yetakchisi Toshkent shahridagi Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga ham bordi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan mazkur markaz islom madaniyati va ilm-fanining oltin davrini oʻzida jamlagan yirik ilmiy-maʼrifiy platformadir. Bu yerda asrayotgan noyob manbalar va qoʻlyozmalar, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga zamin yaratgan fundamental tadqiqotlar

xalqaro ilmiy jamoatchilik uchun mayoc boʻlib xizmat qiladi.

Yaqinda ushbu majmua “Dunyoning eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi” sifatida “Ginnesning jahon rekordlari kitobi”ga kiritildi. Bu eʼtirof markazning meʼmoriy jihatdan muhtashamligi hamda uning global miqyosdagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Bino milliy meʼmorchiilik maktabi anʼanalari va zamonaviy shaharsozlik texnologiyalarining noyob uygʻunligi namunasidir.

Albaniya Respublikasi Prezidenti markazdagi “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans”, “Ikkinchi Renessans” va “Yangi Oʻzbekiston – Yangi Renessans” deb nomlangan maxsus ekspozitsiyalar bilan batafsil tanishtirildi. Mazkur boʻlimlar xronologik izchillikda tuzilgan boʻlib, ular zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning jahon ilm-fani, falsafasi va maʼnaviyatiga qoʻshgan hissasini yaqqol koʻrsatib beradi. Bugungi Uchinchi Renessans gʻoyasi mana shunday mustahkam tarixiy poydevorga tayanishi oliy martabali mehmonda alohida qiziqish uygʻotdi.

Tashrif davomida Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davrlariga oid nodir qoʻlyozmalar hamda betakror tarixiy eksponatlar koʻzdan kechirildi. Ushbu asarlar va moddiy madaniyat namunalari oʻzbek davlatchiligi tarixi nafaqat siyosiy, balki yuksak intellektual qudrat ustiga qurilganining jonli isbotidir.

Oliy martabali mehmon Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining “Faxriy mehmonlar kitobi”ga oʻz mulohazalarini bitib qoldirdi.

– Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyuranimdan gʻoyat mamnunman. Prezidentingizning uzoqni koʻra bilish siyosati samarasida barpo etilgan ushbu ajoyib markaz nafaqat Oʻzbekiston, balki dunyo hamjamiyati uchun ham bebaho xazinadir, – dedi Albaniya Prezidenti. – Mazkur markaz bu yerga kelayotgan sayyohlar, ayniqsa, yosh avlodning yurtigiz tarixi va madaniy merosi bilan yaqindan tanishishi uchun muhim manba boʻlishiga ishonaman.

Shu bilan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begayning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi yakunlandi.

OʻZA.

HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Qozogʻiston Respublikasi Bosh vaziri Olijas Bektenov suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning samimiy salomi va egzu tilaklarini yetkazdi.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari koʻrib chiqildi.

Barcha darajalardagi faol muloqot mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmlari oʻsib, yaqinda qabul qilingan yangi “Yoʻl xaritasi” asosida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

Iyul oyida boʻlib oʻtadigan Hukumatlararo komissiya yigʻilishi hamda Aqtau shahrida oʻtkaziladigan hududlar rahbarlarining birinchi Kengashiga puxta tayyorgarlik koʻrish muhimligi taʼkidlandi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda Oʻzbekiston – BAA strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani alohida qayd etildi.

Suhbat avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum, Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi Amirlii valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning salomi va eng egzu tilaklarini yetkazdi.

Qayd etilganidek, tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qoʻshma korxonalar soni ortib bormoqda. Beshinchi Toshkent investitsiya forumi doirasida BAA kompaniyalari bilan qator yangi kelishuvlar imzolalanishi kutilmoqda.

“Yashil” energetika, yoqilgʻi ishlab chiqarish, transport, logistika, sunʼiy intellekt, raqamlashtirish va boshqa yoʻnalishlardagi yirik loyihalarni jadallashtirishga kelishib olindi.

Xitoy Xalq Respublikasi Milliy energetika boshqarmasi rahbari Van Xunchji boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda “China Energy Engineering Corporation”, “China Datang”, “Sinoma Energy Conservation”, “China Southern

Power Grid”, “CAMCE”, “CNNC”, “State Nuclear Uranium Resource Development” kompaniyalari rahbarlari hamda “The Export-Import Bank of China” va “Bank of China” vakillari ishtirok etdi.

Energetika va geologiya sohalarida oʻzaro manfaatli yuqori texnologik loyihalarni ilgari surish, bank-moliya borasida amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari koʻrib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekiston – Xitoy hamkorligi savdo-iqtisodiyot va investitsiya yoʻnalishlarida jadal surʼat bilan rivojlanib borayotganini chuqur mamnuniyat bilan qayd etdi.

Yilning oʻtgan davrida tovar ayirboshlash hajmi 6 milliard dollardan oshdi, Xitoydan 8 milliard dollardan ziyod toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oʻzlashtirildi. Mamlakatimizda qariyb 6 mingta qoʻshma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

“Yashil” energetika sohasidagi loyihalarni ilgari surishga alohida eʼtibor qaratildi. Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida Oʻzbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari hamda energiyani saqlash tizimlari qurilmoqda.

Ushbu loyihalarni tezlashtirish hamda fotoelektr stansiyalar quvvatini kengaytirish, agrovoltaikani joriy etish va elektr uzatish liniyalari qurish kabi yangi tashabbuslarni boshlash rejalari qoʻllab-quvvatlandi.

Chiqindilarni qayta ishlash hisobiga energiya ishlab chiqarish, data-markazlar va boshqa zamonaviy texnologik yechimlarni rivojlantirish sohasidagi aloqalarga alohida eʼtibor qaratildi.

Togʻ-kon va geologiya sohalaridagi hamkorlik istiqbollari boʻyicha fikr almashildi. Bu borada konlarda birgalikda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va ularni oʻzlashtirish, muhim xomashyoni yetkazib berish sohasida uzoq muddatli sheriklikni yoʻlga qoʻyish nazarda tutilmoqda.

Muzokaralarda Xitoyning yirik banklari bilan moliyaviy hamkorlikni kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, yuqori tezlikda harakatlanishga moʻljallangan avtomobil yoʻllari va gidroelektrostansiyalarini barpo etish, qishloq xoʻjaligi texnikasini

yetkazib berish hamda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv ishtirokchilari davlatimiz rahbariga proaktiv muloqot uchun minnatdorlik bildirib, erishilgan kelishuvlarni soʻzsiz amalga oshirishga qatʼiy intilishini tasdiqladilar.

Buyuk Britaniyaning investitsiyalar boʻyicha davlat vaziri, lord Djeysn Stokvud boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda Buyuk Britaniyaning “UK Export Finance”, “Standard Chartered UK”, “Sturgeon Capital”, “Endeavour Mining” va “British Petroleum” kabi yetakchi kompaniyalari, banklari va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etdi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari koʻrib chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy surʼati qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi va Britaniya sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni jadal oʻsib bormoqda.

Toshkent xalqaro moliya markazi, Xalqaro tijorat sudi va kapital bozorini rivojlantirish hamda farmatsevtika, sunʼiy intellekt va energetika sohalarida texnologik sheriklikni kengaytirish boʻyicha takliflar qoʻllab-quvvatlandi.

Moliya, infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, “yashil” energetika, transport, geologiya va neft-gaz sohalarida, shu jumladan, igitmayo infratuzilmani rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash boʻyicha qoʻshma loyihalarni ilgari surishga alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻzbekiston – Saudiya Ishbiarmonlar kengashi hamraisi, “ACWA” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan bilan uchrashuvda ushbu mamlakat ishbiarmonlari doirasida hamkorlikni yanada kengaytirish va ustuvor loyihalarni amalga oshirish masalalari koʻrib chiqildi.

Saudiyaning “ACWA” va boshqa kompaniyalari bilan sermahsul sheriklik yoʻlga qoʻyilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu borada Toshkent investitsiya forumi doirasida yana bir qator kelishuvlarga erishilgan.

Uchrashuvda “yashil” energetika, sogʻliqni saqlash, transport, infratuzilma, turizm va boshqa yoʻnalishlardagi loyihalarni jadallashtirishga alohida eʼtibor qaratildi.

OʻZA.

Doʻstlik rishtalari

HUKUMAT RAHBARLARI – OʻZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZIDA

17-iyun kuni V Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida mamlakatimizga tashrif buyurgan Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, Qirgʻiz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimaliyev hamda Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida boʻldi.



Oliy martabali mehmonlarga Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamrohlik qildi.

Tashrif davomida mehmonlarga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilgan ushbu ulkan maʼrifiy maskanining qurilish tarixi, maqsad va vazifalari, uning xalqimiz boy ilmiy-maʼnaviy merosini oʻrganish, asrab-avaylash va dunyo jamoatchiligiga keng targʻib etishdagi ahamiyati haqida qisqacha maʼlumot berildi.

Mehmonlar markazdagi “Shon-sharaf” va “Qurʻoni karim” zallari, “Islomdan oldingi davr”, “Birinchi Renessans”, Ikkinchi Renessans” hamda “Yangi Oʻzbekiston – Yangi Renessans” ekspozitsiyalari bilan yaqindan tanishdi.

Tashrif davomida Oʻzbekiston zaminida shakllangan qadimiy davlatchilik anʼanalari, islom ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan buyuk allomalar merosi, temuriylar davridagi yuksalish jarayonlari, shuningdek, bugungi Yangi Oʻzbekistonda ilm-fan, taʼlim, madaniyat va maʼrifat sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida soʻzlab berildi.

Ayniqsa, markazda qoʻllanilgan zamonaviy multimedia yechimlari, noyob qoʻlyozmalar, tarixiy eksponatlar va interaktiv koʻrgazmalar mehmonlarda katta qiziqish uygʻotdi. Taʼkidlanganidek, mazkur majmua nafaqat Oʻzbekistonning boy tarixi va maʼnaviy salohiyatini, balki mamlakatimizning ochiqlik, taraqqiyot va xalqaro hamkorlikka qaratilgan bugungi siyosatini ham yaqqol namoyon etadi.

V Toshkent xalqaro investitsiya

tinchlik, ezgulik va farovonlik tilayman.

Ali ASADOV,
Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri:

– Ochigʻi, benihoya hayratdaman. Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ulugʻvorligi menda chuqur taassurot qoldirdi. Bu yerda muhtaram Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida, shu vazifa yuklatilgan masʼullar bilan hamkorlikda Islom tarixi mukammal tarzda qayta yaratilgan.

Barcha ekspozitsiyalar tarixiy haqiqatga mos ravishda, yuksak badiiy did va katta mahorat bilan yaratilgan. Ishonchim komilki, dunyoda oʻxshashini topish qiyin boʻlgan bu markaz Islom sivilizatsiyasining butun ulugʻvorligini namoyon etadi. Markazda aks ettirilgan Islom Renessansining uch bosqichi uzoq yillar davomida yosh avlod taʼlim-tarbiyasi va kamoloti uchun xizmat qiladi, ularga tarixni anglatadi va har bir insonga, uning dini va eʼtiqodidan qatʼi nazar, maʼnaviy saboq beradi.

Men Ozarbayjon fuqarosi sifatida Oʻzbekistonga va uning mehmondoʻst xalqiga cheksiz hurmat va hayrat bilan qarayman. Barcha tashkilotchilarga muvaffaqiyat, baxt va sogʻliq tilayman. Bu zamonaviy sanʼat va ilmiy tafakkurning haqiqiy shoh asaridir.

Adilbek KASIMALIYEV,
Qirgʻiz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari:

– Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurish men uchun katta sharaf va faxr-iftixor bagʻishlad. Ushbu markaz islom olamining koʻp asrlik ilmiy, madaniy va falsafiy merosini asrab-avaylash hamda navbatdagi avlodlarga yetkazish yoʻlidagi yuksak saʼy-harakatlarning yorqin namunasi. Oʻzbekiston tashabbusi asosida bunyod etilgan markaz tarixiy merosni ilmiy jihatdan oʻrganish va jahon hamjamiyatiga tanitishga qaratilgan muhim qadamdir.

Qohir RASULZODA,
Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri:

– Bugun hamkasblarim bilan birgalikda Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdik. Ekspozitsionlarning qiziqarli hikoyalari uchun minnatdorlik bildiraman. Ekspozitsiya juda qiziqarli ekan. Markazga rivoj va muvaffaqiyatlar tilayman.

Rustam JABBOROV
(“Xalq soʻzi”).

Soliq qoʻmitasi huzuridagi Soliq oliy maktabida 2027/2028 oʻquv yilidan magistratura va oliy taʼlimdan keyingi taʼlim bosqichi joriy etiladi.



OLG'A, FAQAT OLG'A, MILLIY JAMOAM!

*Ne olg'irlar tushib yashil maydonga,
Goh orzuga to'lgan, goho armonga.
Bugun olam aro millionlarning
Ko'zlari tikilgan O'zbekistonga!*

*Bu o'yinda ko'pdir zo'rlardan zo'ri,
Har bir gol misoli qalblarning qo'ri,
Albat, hech birovdan qolishmagaydir
Hujumga otlangan yovqur "oq bo'ri".*

*Taportmas hujum-u metin himoya,
Raqib yuragiga solgaydir soya,
Yurtim, yelka tutsang o'g'lonlaringga,
G'olib yurishlaring bilmas nihoya.*

*Talantda o'xshashi yo'q ul nodirlar,
Bir niyat bag'riga mudom jodirlar,
Hozirdir sha'ningni ko'tarmoq uchun
Eldoru Abboslar, Abduqodirlar!*

*Buyuk bobolarim demishki abas:
"Bu maydon ichida turmoq osonmas..."
Qanotin keng yozsa shijoatingiz,
Bunda hech kim sizga kelolmagay bas.*

*Bo'lsa muzaffarlik chin nishonasi,
Baxtdan yarqiragay el peshonasi,
Chiqajak yuksaklik shohsupasiga,
Hali har o'g'il-qiz, har bir bolasi.*

*...Xalqim shodumondir, qaroqlarda nam,
Kuzatar kiprigin pirpiratmay ham,
Yurtboshim ishonchi kuch bersin sizga,
Olg'a, faqat olg'a, milliy jamoam!*

*Qutlug' maqsad sari har ne shay, illo,
Har bir bellashuvi golga boy, illo,
Jahon aro porlab so'nmas yulduzdek,
O'zbekim qudratin ko'rsatgay, illo!*

O'tkir RAHMAT.

Da'vat



O'ZBEKISTON TIBBIY TA'LIMI

UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH – STRATEGIK JIHATDAN MUHIM QAROR

So'nggi yillarda O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lami yangilanish jarayonlari xalqaro akademik va ekspert doiralarda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda. Germaniya ilmiy jam'iyati va universitetlari ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni diqqat bilan kuzatib kermoqda. Men ushbu o'zgarishlarni faqat milliy taraqqiyot dasturining tarkibiy qismi sifatida emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida yangi taraqqiyot muhitini shakllantirayotgan muhim strategik jarayon sifatida baholayman.

Akademik hamkorlik

Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitaliga ustuvor ahamiyat berilayotgani xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Chunki XXI asrda davlatlarning iqtisodiy qudrati, texnologik salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligi, avvalo, bilim, tashabbuskor va yuqori malakali inson resurslari bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga qaratilayotgan e'tibor mamlakat kelajagini belgilaydigan eng muhim strategik investitsiyalardan biridir.

Tibbiyot sohasi mazkur jarayonlarda alohida o'rin tutadi. Zero, sog'lom jamiyat har qanday barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevoridir. Bugungi zamonaviy tibbiyot yuqori texnologiyali uskunalar va innovatsion davolash usullari bilan bir qatorda keng dunyoqarashga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan, kasbiy mas'uliyatini chuqur anglaydigan hamda zamonaviy bilimlarga tayanuvchi shifokorlarni talab etmoqda.

Shu bois tibbiyot ta'limi har qanday davlatning strategik rivojlanish masalasiga aylanmoqda. Bugungi kunda tibbiyot insoniyat taraqqiyotining eng tez o'zgarayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt, raqamli tibbiyot, genomika, bioinjeneriya va katta ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalar nafaqat diagnostika hamda davolash usullarini, balki tibbiy ta'lim mazmunini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Endilikda tibbiyot universitetlarining vazifasi talabalarga ta'lim berish bilan cheklanmaydi. Ular yosh mutaxassislarda klinik tafakkur, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, ilmiy yondashuv, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda umr davomida o'qib-o'rganish madaniyatini shakllantirishi lozim. Zamonaviy tibbiyot universitetlari shunchaki ta'lim muassasasi emas, balki innovatsiyalar, tadqiqotlar va yangi g'oyalar markaziga aylanishi zarur.

Lyubek universiteti prezidenti sifatida birmuncha vaqt muqaddam O'zbekistonda tibbiyot ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan



tanishish imkoniyatiga ega bo'ldim. Kuzatishlarimga ko'ra, O'zbekiston rahbariyati tomonidan tibbiy ta'limni xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan siyosat o'z vaqtida boshlangan va uzoq muddatli istiqbol nuqtayi nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega qaror hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiy ta'lim, klinik amaliyot va ilmiy tadqiqotlar integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar Germaniyadagi zamonaviy tibbiyot ta'limi konsepsiyasi bilan hamohangdir. Bu borada Toshkent davlat tibbiyot universiteti bilan shakllangan hamkorligimiz umumiy maqsad va mushtarak qadriyatlarga tayanadi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, bugungi kunda Toshkent davlat tibbiyot universiteti mamlakat tibbiy ta'lim tizimida muhim o'rin tutayotgan va jadal rivojlanayotgan muassasalardan biri hisoblanadi. Universitetda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar, xalqaro hamkorlikka ochiqlik va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi menda katta qiziqish uyg'otdi.

Tashrif davomida zamonaviy infratuzilma va ta'lim bazasi bilan tanishuvdan tashqari, eng muhimi, o'zgarishlarga tayyor, xalqaro raqobat talablarini anglaydigan va katta maqsadlar sari intilayotgan akademik jamoani ko'rdim. Har qanday islohotning muvaffaqiyati, avvalo, insonlarga bog'liq. Shu ma'noda, universitet rahbariyati va professor-o'qituvchilar jamoasining o'zgarishlarga ochiqchiligi hamda xalqaro hamkorlikka intilishi menda ijobiy taassurot qoldirdi.

Bugun dunyo universitetlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri milliy ta'lim tizimlarini xalqaro akademik muhit bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Bu jarayonda sheriklik, o'zaro ishonch va ochiq muloqot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Lyubek universiteti

o'rtasidagi hamkorlik ham aynan ana shu tamoyillarga asoslangan. Bu ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi oddiy akademik aloqa emas, balki zamonaviy tibbiy ta'lim sohasida ilg'or bilimlar transferi, tajriba almashish va yangi akademik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik sheriklikdir.

O'zbekiston – Germaniya rektorlar forumi davomida boshlangan muloqotlar qisqa vaqt ichida amaliy natijalarga aylandi. Forum doirasida tibbiy ta'lim dasturlari tahlil qilindi, o'quv rejalari taqqoslandi, ekspertlar darajasida muhokamalar tashkil etildi hamda kelgusi hamkorlikning aniq yo'nalishlari belgilab olindi.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori Shuhrat Boymurodovning Lyubek universitetiga tashrif chog'ida Germaniya oliy tibbiy ta'lim standartlariga muvofiq ishlash chiqilgan tibbiyot ta'lim dasturini Toshkent davlat tibbiyot universiteti bazasida joriy etish bo'yicha prinsipial kelishuvga erishildi. Bu kelishuv



“Bugun O'zbekiston tibbiy ta'limida boshlangan o'zgarishlar yaqin kelajakda xalqaro standartlarga javob beradigan, zamonaviy klinik tafakkurga ega, ilmiy yondashuvni chuqur o'zlashtirgan va global tibbiyot makonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan yangi avlod shifokorlarini tayyorlashga xizmat qiladi.”

nafaqat huquqiy va tashkiliy asos yaratdi, balki hamkorlikning amaliy bosqichiga o'tish uchun mustahkam poydevor vazifasini bajardi.

Dastlabki bosqichda tomonlar dasturning umumiy mazmuni, modullar tizimi, baholash mezonlari, akademik o'qituvchilarning mexanizmlari va ta'lim sifatini ta'minlash masalalarini chuqur muhokama qildi. Tibbiy ta'limda har qanday yangilik puxta metodik asos, malakali kadrlar va samarali baholash tizimisiiz kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, mazkur loyihada tashqi hamkorlikdan ko'ra institutsional o'zgarishlar mantiq'i ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda muhim bir jihat. Biz O'zbekistonga tayyor modelni taklif qilish yoki Germaniya tajribasini mexanik tarzda ko'chirish tarafdori emasmiz. Har bir mamlakatning o'z tarixi, madaniyati, sog'liqni saqlash tizimi va ta'lim an'analari mavjud. Shu

bois hamkorligimizning asosiy tamoyili eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni O'zbekiston ehtiyojlari va milliy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. Aynan shu yondashuv hamkorligimizning eng kuchli tomoni hisoblanadi.

So'nggi oylar mobaynida amalga oshirilgan ishlar natijasida Germaniya standartlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini joriy qilish uchun zarur akademik va tashkiliy asoslar yaratildi. Bu jarayonda professor Yurgen Vestermann va doktor Helena Gerts rahbarligidagi mutaxassislar jamoasini e'tirof etmoq lozim. Ular ta'lim mazmuni, o'quv rejalari, modullar, baholash tizimi va akademik o'qituvchilarning mexanizmlarini ishlab chiqishda faol qatnashdi.

Ayonki, har qanday ta'lim islohotining haqiqiy natijasi auditoriyada namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham professor o'qituvchilar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgan. Toshkent davlat tibbiyot universitetidagi islohotlar ham shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan.

Kelgusida qo'shma ilmiy tadqiqotlar, akademik mobillik dasturlari, qo'shma magistratura va doktorantura loyihalari, raqamli tibbiyot hamda sun'iy intellekt sohasidagi hamkorlikni kengaytirishni rejalashtirmoqdamiz. Bunday izchil aloqalar universitetlarimizning imkoniyatlarini birlashtirish bilan cheklanmaydi. Ular O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Men O'zbekistonda tibbiyot va ta'lim sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni katta qiziqish va e'tibor bilan kuzataman. Ayniqsa, inson kapitaliga tayangan taraqqiyot modeli, yoshlarning bilim olishga intilishi va ilm-fanga qaratilayotgan yuksak e'tibor mamlakat kelajagi uchun mustahkam asos yaratayotganini ko'rmogdaman.

Ishonamanki, bugun O'zbekiston tibbiy ta'limida boshlangan o'zgarishlar yaqin kelajakda xalqaro standartlarga javob beradigan, zamonaviy klinik tafakkurga ega, ilmiy yondashuvni chuqur o'zlashtirgan va global tibbiyot makonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan yangi avlod shifokorlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Zero, tibbiyot ta'limiga kiritilgan har bir sarmoya – inson hayotiga yo'naltirilgan investitsiyadir. Inson salomatligi va qadri esa har qanday davlat taraqqiyotining oliy mezon bo'lib qolaveradi. Shu ma'noda, O'zbekistondagi tibbiy ta'limni xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan siyosati mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qiladigan eng muhim strategik qarorlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

muhimi, ular ta'limning markazida o'qituvchi emas, talaba turishi lozimligi haqidagi zamonaviy akademik falsafani o'zlashtirmoqda.

Nazarimda, hamkorligimizning eng muhim natijasi muayyan o'quv dasturi yoki akademik hujjatlarda emas. Eng asosiy natija – yangi akademik madaniyatning shakllanishidir. Bu madaniyat ma'lumotni yodlashni emas, uni tushunishni, savol berishni, tahlil etishni, mustaqil fikrlashni va dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni rag'batlantiradi. Zamonaviy tibbiyot aynan shu tamoyillarga tayanadi.

2026/2027 o'quv yilidan boshlab Germaniya standartlari asosida shakllantirilgan ta'lim dasturining Toshkent davlat tibbiyot universitetida joriy etilishi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab beradi, deb hisoblaymiz. Mazkur loyiha nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Chunki bu yerda gap faqat bitta universitet haqida emas, balki tibbiyot kadrlarini tayyorlashning yangi yondashuvlari haqida ketmoqda.

Kelgusida qo'shma ilmiy tadqiqotlar, akademik mobillik dasturlari, qo'shma magistratura va doktorantura loyihalari, raqamli tibbiyot hamda sun'iy intellekt sohasidagi hamkorlikni kengaytirishni rejalashtirmoqdamiz. Bunday izchil aloqalar universitetlarimizning imkoniyatlarini birlashtirish bilan cheklanmaydi. Ular O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Men O'zbekistonda tibbiyot va ta'lim sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni katta qiziqish va e'tibor bilan kuzataman. Ayniqsa, inson kapitaliga tayangan taraqqiyot modeli, yoshlarning bilim olishga intilishi va ilm-fanga qaratilayotgan yuksak e'tibor mamlakat kelajagi uchun mustahkam asos yaratayotganini ko'rmogdaman.

Ishonamanki, bugun O'zbekiston tibbiy ta'limida boshlangan o'zgarishlar yaqin kelajakda xalqaro standartlarga javob beradigan, zamonaviy klinik tafakkurga ega, ilmiy yondashuvni chuqur o'zlashtirgan va global tibbiyot makonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan yangi avlod shifokorlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Xelge BRAUN,

Lyubek universiteti prezidenti, professor (Germaniya).

Fikr

YOSHLAR MA'NAVİYATI VA KELAJAGIGA DAXLDOR TARIXIY VOQE'LIK

Davlatimiz rahbarining shu yil 22-maydagi “Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi farmoyishi mutolaa ixlosmandlari, ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'qiyotgan kitobxon o'g'il-qizlarni behad sevintirgani rost. Prezidentimiz bu haqda Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berish marosimida ham alohida ta'kidlab, bugungi murakkab sharoitda insonning mustaqil fikrlay olishi eng katta ustunlik ekanini qayd etdi.

Farmoyishga ko'ra, 2026-yildan boshlab har yili umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan milliy kitobxonlik harakati o'tkazilishi belgilandi. Dastur har yili uch bosqichda amalga oshirilib, 1-bosqich “kitobxonlikharakati.uz” elektron platformasida ro'yxatdan o'tgan holda onlayn, 2 va 3-bosqichlar esa bevosita ishtirok etish formatida viloyat va respublika darajasida o'tkaziladi. Bunda 1-o'rinni olgan 2 nafar g'olibning har biri 50 ming AQSH dollari, 2-o'rinni olgan 2 nafar sovrindorning har biri 30 ming AQSH dollari, 3-o'rinni olgan 2 nafar ishtirokchining har biri 15 ming AQSH dollari pul mukofoti va diplomlar bilan taqdirlanadi. Shuningdek, 5 ta qo'shimcha nominatsiya bo'yicha ham qatnashchilarning har biri 10 ming AQSH dollariga ega bo'ladi.

Jasur RO'ZIQULOV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi,
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti:

– Bugungi globallashuv davrida dunyo yangi bosqichga kirib bormoqda. Texnologiyalar hayotimizni tubdan o'zgartiryapti, sun'iy intellekt inson tafakkuri bilan raqobatlasha boshladi. Ammo bitta haqiqat bor, ya'ni insoniyatni buyuk qiladigan ham, millatni yuksaltiradigan ham tafakkurdir. Uning ildizi esa kitobda.

Prezidentimizning yoshlar orasida kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi farmoyishi bejiz qabul qilinmadi. Chunki bugun jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ma'rifati, erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalashdir.

Ushbu tashabbusni yoshlar ma'naviyati va kelajagi uchun tarixiy burilish bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Chunki kitobga e'tibor – kelajakka e'tibordir. Kitobxon yoshlar ko'paygan mamlakatda jaholat emas, tafakkur va ezigulik hukm suradi.

Bugun davlatimiz kitobxonlikka juda katta e'tibor qaratmoqda. Milliy kitobxonlik harakatining yo'lga qo'yilishi, g'oliblarga katta miqdordagi mukofotlar berilishi yoshlarni bilimga rag'batlantirishning mutlaqo yangi modeli bo'ldi. Bu shunchaki tanlov emas, balki millat kelajagi uchun olib borilayotgan ma'naviy islohotdir.

Muhimi, ushbu loyiha oddiy maktab o'quvchisining kitobga mehri orqali uning kelajagini o'zgartirishi mumkin. Birgina kitob sabab bir yoshning dunyoqarashi o'zgaradi, bir oilaning ma'naviy muhiti boyiydi, ertaga esa butun jamiyatning tafakkuri yuksaladi. Sirasini aytganda, Uchinchi Renessans poydevorini bugun kitob o'qiyotgan yoshlar quradi.

Umidjon NABIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi:

– Mazkur farmoyishni ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadigan muhim hujjat, desak, ayni haqiqat. Mazkur tashabbus yoshlarning kitob mutolaasiga qiziqishini oshirish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Milliy kitobxonlik harakatining har yili tizimli ravishda o'tkazilishi yoshlar orasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi, ularni bilim olishga, izlanishga va o'z ustida ishlashga undaydi. Ayniqsa, dastur bosqichlarining elektron platforma hamda hududiy va respublika darajasida tashkil etilishi barcha yigit-qizlar uchun teng imkoniyat yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa kitobxonlikni oddiy tanlov emas, balki umumxalq ma'naviy harakatiga aylantirishga xizmat qiladi.

Farmoyishda g'olib va sovrindorlar uchun salmoqli pul mukofotlari va diplomlar berilishi belgilangani ham davlatimiz tomonidan yoshlarning bilimi, salohiyati va kelajagiga berilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir. Bunday rag'bat tizimi yoshlarni nafaqat ko'proq kitob o'qishga, balki ilm-fan, ta'lim va shaxsiy rivojlanishga yanada jiddiy yondashishga ruhlantiradi.

Milliy kitobxonlik harakati bugungi kun loyihasi emas, balki Yangi O'zbekistonning ertangi taraqqiyoti uchun qo'yilayotgan mustahkam tamol toshidir. Zero, kitob o'qiydigan jamiyatda tafakkur yuksaladi, ma'naviyat mustahkamlanadi, taraqqiyotga intilish kuchayadi. Shu bois mazkur farmoyish yoshlarning bilim va ma'rifatga intilishini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatimizning intellektual kelajagini ta'minlashga xizmat qiladigan strategik ahamiyatga ega qaror o'laroq tarixga muhrlanadi.

Rahmatjon BOBOJONOV
 (“Xalq so'zi”) yozib oldi.

Prezidentimiz qaroriga ko'ra, Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi Ashxobod mahallasida joylashgan Ezgu tilak ko'chasiga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi Shakarjon Xo'janiyozova nomi beriladi.

Xalq so'zi
Nardnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyotga kelgan qo'yuzmalar taqdir qilinmaydi va mulqiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyotga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.53 Topshirildi – 02.20 **1 2 3 4 5 6**